



UDK: 114.

Oybek ABDUSALOMOV,
Andijon davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi
E-mail: gulomjonovandu@gmail.com, ORCID: 0009-0005-9612-9451

Andijon davlat universiteti dotsenti, PhD I.Abdumalikovni taqrizi asosida

O'ZBEKISTONDA AHOLINI BAXTLILIK DARAJASINI OSHIRISH OMILLARI VA YO'LLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada O'zbekistonda aholining baxtlilik darajasini oshirishga ta'sir etuvchi asosiy omillar hamda bu yo'nalishda amalga oshirilishi lozim bo'lgan samarali chora-tadbirlar tahlil qilingan. Muallif baxtlilikning ijtimoiy, iqtisodiy va ma'naviy jihatlarini o'rganib, aholining hayotdan qoniqish darajasini yuksaltirishda muhim ahamiyat kasb etuvchi faktorlar — barqaror iqtisodiy o'sish, sifatli ta'lim va sog'liqni saqlash, fuqarolik erkinliklari, oila mustahkamligi va ma'naviy muhit kabi jihatlar alohida e'tibor qaratgan. Maqolada, shuningdek, xalqaro baxt indeksleri tajribasi tahlil qilinib, ularni milliy sharoitlarga moslashtirish orqali aholi baxtliligini oshirish bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar bayon etilgan. Ushbu tadqiqot O'zbekistonda ijtimoiy siyosatning insonparvarlik tamoyillariga asoslangan holda yanada takomillashuviga hissa qo'shishni maqsad qiladi.

Kalit so'zlar: Baxtlilik darajasi, ijtimoiy farovonlik, hayotdan qoniqish, iqtisodiy barqarorlik, sog'liqni saqlash, ta'lim sifati, ma'naviy qadriyatlar, fuqarolik jamiyati, milliy rivojlanish.

ФАКТОРЫ И ПУТИ ПОВЫШЕНИЯ УРОВНЯ СЧАСТЬЯ НАСЕЛЕНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ

Аннотация

В данной статье анализируются ключевые факторы, влияющие на уровень счастья населения в Узбекистане, и эффективные меры, которые необходимо реализовать в этом направлении. Автор, изучив социальные, экономические и духовные аспекты счастья, уделяет особое внимание факторам, играющим важную роль в повышении уровня удовлетворенности жизнью населения. К ним относятся устойчивый экономический рост, качественное образование и здравоохранение, гражданские свободы, крепость семьи и духовная атмосфера. В статье также анализируется опыт применения международных индексов счастья и излагаются научно обоснованные предложения по повышению уровня счастья населения путем их адаптации к национальным условиям. Данное исследование призвано способствовать дальнейшему совершенствованию социальной политики в Узбекистане на основе гуманистических принципов.

Ключевые слова: Уровень счастья, социальное благополучие, удовлетворенность жизнью, экономическая стабильность, здравоохранение, качество образования, духовные ценности, гражданское общество, национальное развитие.

FACTORS AND PATHWAYS TO INCREASING THE HAPPINESS LEVEL OF THE POPULATION IN UZBEKISTAN

Annotation

This article analyzes the key factors influencing the increase in the population's happiness level in Uzbekistan, as well as the effective measures that should be implemented in this area. The author examines the social, economic, and spiritual aspects of happiness, paying special attention to factors that are crucial for raising the population's life satisfaction. These include sustainable economic growth, quality education and healthcare, civil liberties, family stability, and the spiritual environment. The article also analyzes the experience of international happiness indices and presents scientifically-grounded proposals for increasing public happiness by adapting them to national conditions. This research aims to contribute to the further improvement of social policy in Uzbekistan, based on principles of humanism.

Keywords: Happiness level, social well-being, life satisfaction, economic stability, healthcare, quality of education, spiritual values, civil society, national development.

Kirish. O'zbekiston jamiyati misolida, baxt tushunchasi milliy qadriyatlar prizmacida yanada boyidi. Bugungi kunda biz baxtni oilaning farovonligi, jamiyatning totuvligi, mamlakatning tinchligi kabi tushunchalardan ajratib tasavvur qila olmaymiz. Demak, baxtning ijtimoiy mohiyati — u jamoa hayotida namoyon bo'ladigan kollektiv hodisa hamdir. Biror inson o'zini baxtliman deb his qilishi uchun uni o'rab turgan muhit, yaqinlari ham baxtli bo'lishi darkor, degan qarash xalqimiz qalbiga singib ketgan. Bunda "bir kishining baxti boshqa bironing baxtsizligi hisobiga qurilmasin" degan adolatli tamoyil mujassam. Shu bois, milliy bag'rikenglik, mehr-oqibat, o'zaro yordam kabi fazilatlar baxtli jamiyatning asosi sifatida qadrlanadi.

Muhokama va natijalar. Falsafiy jihatdan baxt tushunchasi insonning erkinligi va ma'suliyati bilan bog'liq.

Baxt — bu ma'lum ma'noda insonning baxtiyor bo'lishga bo'lgan erkin tanlovi hamdir. Chunki ikki kishining hayotiy sharoitlari o'xshash bo'lsa-da, ularning biri o'zini baxtli, ikkinchisi esa baxtsiz his etishi mumkin. Bu esa baxt hissining subyektiv, ichki idrok bilan bog'liq qirrasini ko'rsatadi. Falsafada "baxt paradoksi" degan atama bor — odam baxtni qancha ko'p qidirsam, unga erishish shuncha qiyinlashadi; lekin o'z burchi va hayot mazmuniga chuqurroq sho'ng'ib, baxt haqida kam o'ylagan sari, u sezilarliroq namoyon bo'ladi. Shunday ekan, baxtning ma'naviy mohiyati — insonning o'z hayotidan ma'no topa olishi, uning yaxshilik va ezgulikka xizmat qilayotganini his etishidir.

Ijtimoiy-falsafiy tahlil shuni ko'rsatadiki, baxtning barqarorligi masalasi ham muhimdir. Inson hayoti turli vaziyatlarga boy: shodlik damlari ham, tashvishli kezzar ham

bo'ladi. "Baxt" tushunchasi ana shu og'ir-yengil kunlarning umumiy manzarasini qay darajada mazmunli deb qabul qilishimiz bilan bog'liq. Baxt barqaror holatmi yoki vaziyatlarga bo'ysunuvchi o'zgaruvchan hismi, degan savollar ilmiy adabiyotlarda o'rtaga tashlangan. Psixologiyada "baxt gomeostazi" nazariyasiga ko'ra, har bir shaxsning o'zida ma'lum bir bazaviy baxt darajasi bo'lib, hayotda yuz beradigan juda quvonchli yoki juda qayg'uli voqealardan so'ng ma'lum muddat o'tib, inson yana o'sha odatiy baxt holatiga qaytar ekan[1]. Inson tabiatan baxt izlovchi mavjudot bo'lib, uning hayotida baxtlik holatiga intilish doimiy maqsadlardan biri sifatida namoyon bo'ladi. Lekin baxt subektiv holat bo'lgani sababli, uning barqaror yoki o'zgaruvchan tabiati doimiy bahslarga sabab bo'lib kelgan. Shu nuqtayi nazardan "baxt gomeostazi" tushunchasi so'nggi paytlarda psixologiya, nevrobiologiya va ijtimoiy falsafa sohalarida alohida e'tiborga tushmoqda.

"Gomeostaz" atamasi tibbiyot va fiziologiyada organizmning ichki muhitini barqaror holda saqlab turish qobiliyatini anglatadi. Ushbu nazariya psixologik holatlarga ham tatbiq etiladi. Baxt gomeostazi degani – insonning baxt darajasi tashqi omillar ta'sirida vaqtincha o'zgarsa-da, ma'lum vaqt o'tgach, avvalgi "normal" emotsional holatiga qaytishi demakdir. Masalan, inson lotereya yutsa yoki katta muvaffaqiyatga erishsa, u vaqtincha katta xursandlikni his qiladi. Biroq vaqt o'tishi bilan bu hissiyot so'nib, emotsional holat yana o'ziga xos turg'un nuqtaga qaytadi. Xuddi shunday, yoqimsiz voqealar tufayli qayg'u yoki tushkunlikka tushgan insonlar ham vaqt o'tishi bilan qalban tiklanadi. Bu jarayon insonning psixofiziologik moslashuv mexanizmlari orqali amalga oshadi. Falsafiy nuqtayi nazardan baxt gomeostazi insonning ma'naviy va ijtimoiy ongini anglashda muhim kategoriya sifatida namoyon bo'ladi. Jumladan, Sharq falsafasida baxt muvozanat va qanoat tuyg'usi bilan chambarchas bog'langan. "Ortiqcha xohish insonni iztirobga soladi" degan g'oyalarni Sharq allomalari asarlarida ko'p uchratish mumkin. Bu esa baxt gomeostazi konsepsiyasining ilk manbalari insoniyat ma'naviy merosida ham mavjud ekanini ko'rsatadi. Zotan, inson faqat moddiy yoki jismoniy muvaffaqiyat bilan emas, balki ma'naviy barqarorlik bilan ham baxtli bo'ladi.

Psixologik nuqtayi nazardan insonda baxt tuyg'usini shakllantiruvchi dofamin, serotonin va oksitotsin kabi "baxt gormonlari" vaqtincha hissiy ko'tarinkilikni ta'minlasa-da, inson miyasi ushbu gormonlar darajasini doimiy ravishda ushlab turishga qodir emas. Nevrofiziologik tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, inson shaxsiy yutuq yoki yo'qotishlardan keyin ma'lum vaqt davomida o'z ehsosiy holatiga qaytishga moyil bo'ladi. Bu jarayon – psixologik gomeostazning bir ko'rinishi bo'lib, inson miyasidagi muvozanatni tiklash funksiyasining ijrosidir. Baxt gomeostazi ijtimoiy jarayonlarga ham bog'liq. Aholining turmush darajasi, ish bilan ta'minlanishi, sog'liqni saqlash imkoniyatlari va ta'limga kirish imkoni – barchasi baxt darajasining ijtimoiy ko'rsatkichlaridir. Ammo shunday ijtimoiy sharoitlar bir xil bo'lgan jamiyatlarda ham insonlar baxtlik darajasida farq qilishi, aynan shaxsiy gomeostatik nuqta turlicha ekanini ko'rsatadi.

O'zbekiston kabi o'sib borayotgan jamiyatlarda baxtlik indeksiga qaraganda, fuqarolarning ma'naviy, madaniy qadriyatlariga bog'liq qanoat darajasi muhim ahamiyatga ega. Masalan, inson oilasi barqaror, farzandlari sog'lom va ilmi bo'lsa, u o'zini baxtli his qiladi. Biroq tashqi muvaffaqiyatlarga erishgan, lekin ruhan beqaror, oilaviy munosabatlari izdan chiqqan insonda baxt gomeostazi buzilishi mumkin. Demak, gomeostaz na faqat biologik va psixologik, balki ijtimoiy-ma'naviy holatning ham natijasidir. Bu tushuncha, shuningdek, davlat siyosatini shakllantirishda

muhim ahamiyatga ega. Masalan, baxtli jamiyat qurish yo'lida olib borilayotgan siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy islohotlar insonlarning ruhiy gomeostazini barqarorlashtirishga qaratilgan bo'lishi kerak. Aks holda, moddiy farovonlik oshsa-da, ma'naviy iztiroblar ortishi oqibatida jamiyatda baxt darajasi pasayib ketishi mumkin.

Baxt gomeostazi – inson baxtining turg'un nuqtasi mavjudligini, uning qisqa muddatli kayfiyat o'zgarishlaridan mustaqil holda, uzoq muddatli muvozanat holatiga intilishini anglatadi. Bu tushuncha inson tabiati, jamiyatdagi muvozanat, fuqarolarning qanoat va ma'naviy ehtiyojlarini yaxshiroq anglashga yordam beradi. O'zbekiston sharoitida ushbu nazariya asosida jamiyatning ma'naviy gomeostazini ta'minlash davlat siyosati, oilaviy tarbiya va ta'lim tizimlari uchun asosiy mezon bo'lib xizmat qilishi mumkin. Bu nazariya bahsli bo'lsa-da, lekin hayot kuzatuvlari chinakam baxt inson tafakkurining barqaror xususiyati ekanini ko'rsatadi. Ya'ni, doimiy ravishda yaxshi fikrlovchi, shukrona va ishonch bilan yashaydigan kishilar tahlotuproq vaziyatlarda ham o'z baxtlarini saqlay oladilar. Binobarin, baxtning falsafiy mohiyati shuki – u nafaqat tashqi omillarning mahsulidir, balki insonning ichki dunyosidan, dunyoqarashidan ham shakllanadi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Shu bilan birga, baxt tushunchasi ma'naviy kamolot tushunchasi bilan uyg'un. Eng baxtli inson – bu nafaqat o'zi baxtiyor, balki o'zgalarga ham baxt ulasha oladigan insondir. Jamiyatimizda fidoyi, saxovatli, el uchun xizmat qiladigan kishilarga nisbatan "baxtiga boshqalar ham sherk" degan e'tirof bor. Bu – baxtning ijtimoiy mohiyatini yana bir bor ko'rsatadi. Ya'ni baxt nimaniki qo'llab-quvvatlaydi? U hamjihatlikni, insonparvarlikni, adolatni qo'llab-quvvatlaydi. Shu bois, baxt tushunchasi o'z-o'zidan yaxlit ijtimoiy qadriyatlar majmuasi bilan bog'lanadi. Unda insoniyatning ezgu orzulari, yaxshilikka intilishi, adolatli jamiyat qurish g'oyalari mujassam.

O'zbekistonda baxt tushunchasi milliy, diniy va madaniy qadriyatlar negizida shakllangan holda, ma'naviy hayot va oilaviy munosabatlar bilan chambarchas bog'liqdir. Baxt ko'pincha diniy ishonch, jamoa farovonligi va ichki xotirjamlik asosida baholanadi.

Aholining baxtlik darajasi faqat moddiy farovonlik bilan emas, balki sog'liq, oila barqarorligi, mehnat bilan bandlik, ta'lim imkoniyatlari va adolatli ijtimoiy muhit bilan belgilanadi. Bu ko'rsatkichlar baxtni faqat subyektiv hissiyot emas, ijtimoiy kategoriya sifatida talqin qilish zarurligini ko'rsatadi.

Ijtimoiy guruhlar kesimida baxtga qarashlar turlicha shakllanadi. Yoshlar baxtni shaxsiy erkinlik va o'zini ro'yobga chiqarish bilan bog'lasa, keksalar va ayollar uni oila, ma'naviy barqarorlik va diniy qoniqish bilan bag'rikenglik asosida tushunadilar.

Baxt tushunchasi barqaror fuqarolik jamiyati, samarali davlat boshqaruvi va insoniylikka asoslangan siyosiy islohotlar bilan uyg'un holda shakllanishi mumkin. "Yangi O'zbekiston" g'oyasi doirasidagi ijtimoiy dasturlar baxtli jamiyat barpo etishga xizmat qilmoqda.

Ta'lim, sog'liqni saqlash, ish bilan ta'minlash va adolatli iqtisodiy imkoniyatlar - baxtlikni oshirishning institutsional asoslaridir. Baxtning barqarorligi jamiyatda tenglik, qonuniylik va inson qadrini ta'minlashga bog'liq.

Baxtni faqat shaxsiy masala sifatida emas, balki umumiy ijtimoiy farovonlikning ko'rsatkichi sifatida anglash zarur. Bu qarash insonlar o'rtasidagi bag'rikenglik, hamjihatlik va jamoaviy mas'uliyatni mustahkamlaydi.

Baxt tushunchasini rivojlantirish faqat davlat siyosati emas, balki fuqarolarning ma'naviy-axloqiy o'sishi, ta'limlilik va jamiyatdagi ijtimoiy adolatga bo'lgan ishonchga ham

bog'liqdir. Bu jarayon fuqarolik faolligi va inson kapitalini rivojlantirish orqali amalga oshiriladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Yuqoridagi tahlil va xulosalar asosida O'zbekistonda aholi baxtlilik darajasini oshirish va uni o'lchash tizimini takomillashtirishning quyidagi yo'llari mavjud:

1. Baxt va farovonlikni rivojlantirish bo'yicha davlat dasturlari ishlab chiqish zarur. Davlat siyosatini faqat iqtisodiy ko'rsatkichlar emas, balki fuqarolar farovonligi va baxtliligini oshirishga yo'naltirish zarur. Bu borada maxsus milliy dastur yoki strategiya ishlab chiqish taklif etiladi. Mazkur dastur doirasida sog'liqni saqlash, ta'lim, bandlik, turar-joy sharoitlarini yaxshilash, ekologiyani muhofaza qilish kabi baxtga ta'sir etuvchi barcha sohalar kompleks ravishda qamrab olinishi lozim. Har bir islohot va qarorning "aholi baxti"ga ta'siri baholanib borilishi tavsiya etiladi.

2. Aholi baxtliligini o'lchash milliy indikatorlarini takomillashtirib borish maqsadga muvofiqdir. Yurtimiz sharoiti va milliy qadriyatlarini inobatga olgan holda, aholi baxtining integral ko'rsatkichlar tizimini ishlab chiqish kerak. Oilalar baxtlilik indeksi bo'yicha ilk qadam qo'yildi, uning doirasini kengaytirib, umummilliy baxt indeksi metodikasini yaratish maqsadga muvofiq. Bunda mahalliy sotsiologik xizmatlar, olimlar va ekspertlar jalb etilgan holda, baxtni o'lchashning eng mos va samarali indikatorlari tanlab olinishi darkor. Indeksning metodologiyasi shaffof va ochiq bo'lishi, har yili yoki davriy ravishda natijalar e'lon qilinishi, ular asosida tegishli xulosa va choralar belgilanishi lozim.

3. Madaniy-ahloqiy qadriyatlarni mustahkamlash orqali insonlarni ichki qoniqish hissini kuchaytirish mumkin. Milliy baxt konsepsiyasining asosi bo'lgan oilaviy totuvlik, hamjihatlik, mehr-oqibat, qanoat va shukronalik fazilatlarini asrab-avajlash kerak. Bu borada tarbiyaviy ishlarni kuchaytirish, ommaviy axborot vositalari va ta'lim tizimida mazkur qadriyatlarni targ'ib etish muhim ahamiyatga ega. Oila institutini qo'llab-quvvatlash, ajrimlarning oldini olish, yoshlarni oila qurish va oilaviy hayotga tayyorlash bo'yicha dasturlar amalga oshirish tavsiya etiladi. Chunki mustahkam va baxtli oilalar – baxtli jamiyat poydevori hisoblanadi.

4. Ijtimoiy adolat va ishonch muhitini yaratish jamiyat insonlarning xotirjam, kelajakka umid bilan yashashiga sabab bo'ladi. Aholi o'rtasida ertangi kunga ishonch va himoyalanganlik hissini oshirish uchun huquqiy adolatni ta'minlash doimiy e'tiborda bo'lishi lozim. Korrupsiyaga qarshi kurashish, davlat idoralari faoliyatida ochiqlik va hisobdorlikni oshirish choralari qat'iy davom ettirilishi kerak. Fuqarolarning murojaatlariga e'tiborli munosabat, joylarda hokimiyat va xalq o'rtasida muloqotni yaxshilash ham jamiyatda ishonch muhitini mustahkamlaydi. Ijtimoiy adolat ta'minlangan jamiyatdagina odamlar o'z kelajagini ishonch bilan rejalashtirib, baxtli hayot kechirishi mumkin.

5. Iqtisodiy farovonlik va ijtimoiy himoyani ta'minlash orqali insonlar o'zlarini davlat va jamiyat himoyasida ekanini his qiladi. Baxtni shakllantiruvchi muhim omil – turmush sharoiti yaxshi bo'lishi, moddiy tangliklardan xoli yashashdir. Shuning uchun iqtisodiy islohotlar doirasida aholining real daromadlarini oshirish, yangi ish o'rinlari yaratish, kambag'allikni qisqartirish kabi vazifalar ustuvorligicha qolishi lozim. Ayniqsa, yoshlar va ayollar bandligini ta'minlashga qaratilgan dasturlarni kengaytirish tavsiya etiladi. Ijtimoiy himoya tizimini yanada kuchaytirish,

muhtoj va zaif qatlamlarni manzilli qo'llab-quvvatlash orqali ham insonlarning baxt hissiyotiga ijobiy ta'sir ko'rsatish mumkin. Chunki jamiyatda hech kim yolg'iz va qarovsiz emasligi, davlat har bir fuqaro farovonligiga g'amxo'rlik qilishiga ishonch uyg'onsa, umumiy baxt darajasi oshishi tayin.

6. Sog'liqni saqlash va ruhiy salomatlik muhim yo'nalish bo'lib, hozirgi axborotlashuv sharoitida o'zining shaxsiy kognitiv va psixik ko'rsatkichlarini muvozanatini ta'minlash muhim ahamiyatga egadir. Aholi salomatligini muhofaza qilish – baxtli jamiyatning garovidir. Shu bois tibbiy xizmatlar sifati va qamrovini yanada oshirish, ayniqsa qishloq joylarda tibbiy infratuzilmani yaxshilash dolzarb vazifadir. Pandemiya tajribasi sog'liq bilan birga ruhiy salomatlik masalalariga ham yetarlicha e'tibor qaratish lozimligini ko'rsatdi. Kelgusida aholi o'rtasida stress, depressiya va ruhiy buysunish holatlarini tez aniqlash va ularning oldini olish bo'yicha mexanizmlar yaratish tavsiya etiladi. Psixologik xizmatlarni rivojlantirish, maslahat markazlari tashkil etish va jamoatchilikni ruhiy sog'lom turmush tarziga yo'naltirish orqali ham baxtlilikni oshirish mumkin. Insonlarning nafaqat tan jismoniy sog'lomligi, balki qalban xotirjam va barqaror bo'lishi baxtning muhim shartidir.

7. Ta'lim va ma'rifat orqali shaxsiy rivojlanishni ta'minlash zarur. Inson o'zini baxtli his qilishida uning shaxsiy o'sish imkoniyatlari, intellektual va madaniy ehtiyojlarining qondirilishi ham ahamiyatlidir. Shu bois, ta'lim sifatini yaxshilash, umrbod ta'lim va malaka oshirish imkoniyatlarini kengaytirish darkor. Yoshlarning iste'dod va qobiliyatlarini yuzaga chiqarish, fan, san'at, sport sohalarida o'zini namoyon etishi uchun shart-sharoit yaratish lozim. Madaniy-ma'rifiy muassasalar (teatri, muzey, kutubxona va h.k.) faoliyatini kuchaytirish ham jamiyatda ma'naviy qoniqishni oshiradi. Zero, o'z qobiliyatini ishga solib, hayotda maqsad-sarhisob bilan yashaydigan inson baxtliroq bo'ladi. Shaxsning o'zini-o'zi anglashi va rivojlantirishiga ko'maklashish – umumiy baxt darajasini oshirishga xizmat qiladi.

8. Ilmiy tadqiqotlar va xalqaro tajriba almashinuvi jamiyat va inson baxtini ta'minlashda ma'lum bir ahamiyatga egadir. Aholi baxtliligini o'rganish va oshirish borasidagi ishlarni ilmiy asosda davom ettirish zarur. Sotsiolog, psixolog va iqtisodchi olimlardan iborat tarmoqlararo tadqiqot guruhlarini shakllantirib, muntazam ravishda aholining turli qatlamlarida baxt va hayotdan qoniqish holatini monitoring qilish taklif etiladi. Bu tadqiqotlar natijasida muayyan dolzarb muammolar yoki ijobiy o'zgarishlar haqida ma'lumot olinadi hamda qaror qabul qiluvchilar uchun asos yaratiladi. Shuningdek, boshqa davlatlarning tajribalarini o'rganish, xalqaro konferensiya va seminarlarda ishtirok etish orqali baxt iqtisodiyoti va ijtimoiy farovonlik sohasidagi eng yaxshi amaliyotlarni joriy etish mumkin. Jahonda baxtni o'lchash va oshirish bo'yicha to'plangan tajribani milliy qadriyatlarimiz bilan uyg'unlashtirib qo'llash o'ta foydalidir.

Xulosa. Yuqoridagi tavsiyalarni amalga oshirish orqali O'zbekistonda xalqimizning baxtlilik darajasini yanada yuksaltirish imkoniyati ortadi. Baxt – jamiyatning eng oliy boyligi. Insonlar baxti uchun qayg'urish va ularning hayotdan rozi bo'lib yashashi uchun sharoit yaratish esa ham davlatning, ham har bir mas'ul fuqaroning vazifasidir. Baxtiyor va farovon jamiyat barpo etish yo'lida amalga oshiriladigan har bir sa'y-harakat yurtimizning kelajakdagi taraqqiyotiga mustahkam poydevor bo'lib xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR

1. Cannon, W. B. Physiological regulation of normal states: some tentative postulates concerning biological homeostatics // A Charles Riches amis, ses collègues, ses élèves (fr.) / A. Pettit. — Paris: Les Éditions Médicales, 1926. — P. 91.
2. <https://www.gazeta.uz/uz/2018/07/25/prezident/#!> - Shavkat Mirziyoyev — oila va baxt haqida. Murojaat etilgan sana: 22.03.2021 y.
3. Teshaboyev M. Arastu etikasida axloqiy madaniyat masalalari. NamDU ilmiy axborotnomasi - Nauchniy vestnik NamGU 2019-yil 5-son. – B. 196.
4. Aiste, Celkyte. (2017). Epicurus and Aesthetic Disinterestedness. <https://core.ac.uk/download/131212165.pdf> (Accessed: 22 Mar, 2025).
5. Qambarov A. Jamiyatning ma'naviy yangilanishi jarayonida ilmiy qadriyatlarining roli. Ijtimoiy falsafa falsafa fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. Farg'ona, 2006 y. – B. 34.
6. X.Saydivaliyeva. Oilaviy baxt tushunchasi hamda O'zbekistonda oilalarning baxtlilik indikatorlarini ishlab chiqish masalalari // "Zamonaviy dunyoda ijtimoiy fanlar: nazariy va amaliy izlanishlar" nomli ilmiy, masofaviy, onlayn konferensiya. – B. 40.